

“Kelajak soati” darsining 5-8-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
25-mavzu: “Muqaddas ayol”

Umumiy maqsad: O‘quvchilarda ayol va Ona siymosiga nisbatan chuqur hurmat, ehtirom va minnatdorlik tuyg‘ularini shakllantirish, ayol obrazini badiiy, tarixiy va ijtimoiy manbalar asosida tahlil qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.

Annotatsiya: Mashg‘ulot davomida o‘quvchilarga bugungi globallashuv davrida yoshlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish, oilaning muqaddasligi va ayol zotiga bo‘lgan yuksak ehtiromni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi singdiriladi. Mazkur dars ishlanmasi o‘quvchilarda komil inson fazilatlarini uyg‘otishga xizmat qiladi.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarga ustoz, ona, buvi, opa-singil, xola, amma kabi ayollarning hayotimizdagi muqaddas o‘rni haqida chuqur tushuncha berish;
2. O‘quvchilarning mustaqil fikrlash, mulohaza yuritish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
3. Ayol obrazining adabiyot va madaniyatimizdagi aksini ko‘rsatish.

Asosiy g‘oya:

“Muqaddas ayol” dars ishlanmasining asosiy g‘oyasi – bu shunchaki ayollarni bayram bilan tabriklash emas, balki “Ayol – jamiyatning ma’naviy ko‘zgusi va davlatning mustahkam tayanchi”, degan g‘oyani o‘quvchilar ongiga singdirishdir. O‘quvchilarda “Biz kimlarning avlodimiz?” degan savolga javob uyg‘otishdir. To‘marisning jasorati, Nodirabegimning zakovati va Zulfiyaxonimning sadoqati misolida, zamonaviy qizlarimizda milliy g‘urur va o‘g‘il bolalarimizda ayol zotiga nisbatan hurmat hissini shakllantirish. O‘quvchi qalbida ayol timsolida go‘zallik, mehribonlik va kuch-qudrat uyg‘unligini ko‘rsatish hamda ularni ushbu muqaddas xazinani asrab-avaylashga o‘rgatishdan iborat.

Kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

“Muqaddas” konsepsiyasini ijtimoiy-ma’naviy qimmat sifatida tushuntirish; Ayolning ko‘p qirrali roli – ona, ayol, tarbiyachi, jamiyatda o‘z o‘rniga ega shaxs sifatida o‘rnini asoslab berish;

Milliy o‘ziga xoslik – o‘zbek madaniyatidagi ayol obrazining xususiyatlari, tarixiy kontekstda ayollar o‘rnining o‘zgarishini tushunish.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

Onaga, buviga, opa-singillarga bo‘lgan mehr tuyg‘usini anglashi, minnatdorchilik, himoyachilik va g‘amxo‘rlik tuyg‘usini rivojlantirish;

O'zbek ayolining xususiyatlarini qadrlash, milliy kiyim, an'ana va urf-odatlarini hurmat qilish. Ajdodlar merosini ulug'lash milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish;

3. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

O'quvchilar o'z hayotlarida ayolga nisbatan hurmat va ehtirom ko'rsatish, oilada va jamiyatda xotin-qizlar (oilada buvi, ona, opa-singil va boshqalar) bilan munosabatda bo'lish madaniyatini amalda qo'llashni o'rganadilar.

Metapredmet yondashuv:

- **Adabiyot:** ayollarga bag'ishlangan she'r, hikoya, maqollarni tahlil qilish.
- **Tarix:** ayollar tarixidagi muhim voqealar, ularning jamiyatdagi o'rni bo'yicha davra suhbat
- **Media savodxonlik:** sahna ko'rinishlar, videolavhalar, kinofilmlar orqali ayollarga xos bo'lgan ma'naviy va axloqiy fazilatlarni aniqlab, ularni chuqur tahlil qilish.

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Ta'lim shakli: suhbat, interfaol o'yinlar, videolavha.

I. KIRISH. Motivatsion qism (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Assalomu alaykum, ilmga chanqoq o‘quvchilarim, bugun bahorning go‘zal bir kunida siz bilan diydorlashib turganimdan juda xursandman. Hademay 8-mart – ayollar bayrami bo‘ladi. Shu sababli bugungi darsimiz mavzusi “Muqaddas ayol” deb nomlanadi.

Azizlarim, dunyoda juda ko‘p mo‘jizalar bor. Ammo tabiat yaratgan eng buyuk mo‘jiza bu – ayoldir. Shoir Muhammad Yusuf o‘z she’rida Vatanni ona yoki singilga qiyoslaydi.

*...Singlim deymi,
Onam deymi,
Hamdard-u
hamxonam deymi,
Oftobdan ham
o‘zing mehri
Ilig‘imsan, Vatanim.*

O‘quvchilar, ayting-chi, nega Vatanni onaga, singilga, oftobga qiyoslaymiz?
O‘quvchilar javob beradi.

O‘qituvchi: Barakalla! Shoir yaqin ayol qarindoshlarimiz – onalarimiz, singillarimizdagi iliq mehrni Vatan mehri bilan bir qatorga qo‘yadi.

Abdulla Oripov ham ayol zotining naqadar buyukligini mana bu satrlar bilan e’tirof etgan:

O‘ZBEK ONASI

Mushtipar ham o‘zing, buyuk ham o‘zing,
Kuyinchak ham o‘zing, kuyuk ham o‘zing.
Olamga tatirlik suyuk ham o‘zing,
Payt keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, O‘zbek onasi, O‘zbek onasi.

Seni To‘maris deb maqtaganim bor,
Sen Temur beshigin tebratgan bedor,
Sensan Bibixonim, Nodirayi zor,
Payti keldi aytmoqqa, gapning xonasi,
Ey, O‘zbek onasi, O‘zbek onasi.

O‘qituvchi: Shoir Abdulla Oripov o‘z she’rida zamonasining buyuk ayollariga shunday ta’rif beradi. Ayolga, onaga hurmat bilan qarashga chaqiradi.

Interaktiv mashq: “Mehrni tasvirlab ber”

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, hozir juda qiziqarli kichkina mashq qilamiz. Agar mehrni ko‘rish mumkin bo‘lsa, u nimaga o‘xshagan bo‘lardi? Rangi bormi? Issiqmi yoki sovuq? Qanday shaklda bo‘lardi?

O‘quvchilar javob beradi.

O‘qituvchi: Endi yana bir savol. Siz hayotingizda eng ko‘p mehrni kimdan his qilasiz?

O‘quvchilar: Ona, buvi, opa...

O‘qituvchi: Juda to‘g‘ri. Shuning uchun ham shoirlar Vatanni onaga qiyoslaydi. Chunki ona mehri qanday bo‘lsa, Vatan mehri ham shunday iliq, shunday beg‘ubor.

Kelinglar, kichkina o‘yin o‘ynaymiz. Men ayolga xos bir fazilatni aytaman, siz esa bu kimga ko‘proq mos kelishini aytasiz.

Eng sabrli – bu...

O‘quvchilar: Ona!

O‘qituvchi: Eng mehribon...

O‘quvchilar: Ona / Buvi!

O‘qituvchi: Eng erkalaydigan...

O‘quvchilar: Buvi!

O‘qituvchi: Eng himoya qiladigan.

O‘quvchilar: Ona!

O‘qituvchi: Barakalla! Demak, hayotimizdagi eng chiroyli hislar ko‘pincha ayollar bilan bog‘liq ekan.

II. ASOSIY QISM. (30 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, keling, bir zumga tariximizga nazar tashlaylik. Nega bizning xalqimizda **“Ona”** va **“Vatan”** so‘zlari hamisha yonma-yon keladi? Chunki Vatan ham Ona kabi har bir farzandini o‘z bag‘rida ulg‘aytiradi, har bir fuqarosiga g‘amxo‘rlik qiladi. Ayol bir qo‘li bilan beshikni, ikkinchi qo‘li bilan esa dunyoni tebratishga qodir bo‘lgan muhtarama zot hisoblanadi. Ayolning muqaddasligi uning uchta buyuk vazifasida namoyon bo‘ladi:

Birinchi vazifasi bu onalik – farzandlarni dunyoga keltiradi. U insoniyat davomiyligini ta‘minlaydi.

Ikkinchi vazifasi **tarbiya berish**. Dunyodagi barcha buyuk shaxslarning – Alisher Navoiydan tortib Mirzo Ulug‘bekkacha – barchasining ortida oqila va bilimli ona turgan.

Uchinchi vazifasi – ro‘zg‘or yumushlari va farzandlar ta‘limi. Oila – jamiyatning kichik bir bo‘g‘ini bo‘lsa, ayol shu qo‘rg‘onning ustunidir. Agar ayol bilimli, odobli va ma‘rifatli bo‘lsa, butun millat shunday bo‘ladi.

Keling hozir shunday bilimli va ilg'or ayollardan biri – Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri E'zoza Karimovaning fikrlariga quloq tutamiz.

Vizual kontent

“Yoshlikdan maqsadni katta oling!” – E'zoza Karimova

<https://youtu.be/xfrXB9rYx-s>

O'qituvchi: Agar tarixga nazar solsak, ayollarning fan, madaniyat, ma'naviyat, sport sohasida faolligini ko'ramiz. To'maris, Bibixonim, Mumtozmahal Begim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiya, Saida Zunnunova, Sofiya Hakimova kabi ayollar Markaziy Osiyoda o'z iqtidori, aqliy salohiyati bilan nom qozongan. Ilm-fan taraqqiyotiga erkaklar bilan bir safda o'z hissasini qo'shgan ayollar soni oz emasligini ko'ramiz. To'marisning jasorati, Nodirabegimning zakovati, Zulfiyaxonimning sadoqati – bularning barchasi o'zbek ayoliga xos xususiyatlardan sanaladi. Bugungi kunda xotin-qizlarni ilm-fanning eng murakkab yo'nalishlarida ham ko'rishimiz mumkin. Keling, hozir tarixda birinchilardan bo'lgan jasur va jur'atli ayollar haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

O'z sohasida birinchi bo'lgan o'zbek ayollari

<https://youtu.be/DSCSG4GCE4M>

O'qituvchi: Birinchi bo'lish oson emas. Bu katta jur'at talab qiladi. Bu ayollar nafaqat o'zi uchun ishlagan, balki butun jamiyatni o'zgartirish, stereotiplarni sindirish uchun ham kurashgan. Ulardan keyin kelayotgan ayollarga osonroq bo'lishi uchun kurashgan.

Bugungi kunda birinchi bo'lish u qadar qiyin emas, chunki davlatimiz xotin-qizlarga erkaklar bilan teng sharoit yaratmoqda. Davlatimiz rahbarining xotin-qizlarga murojaatida: ***“Ilm-fan bilan shug'ullanish, ilmiy yangilik yaratish – bu igna bilan quduq qazishga barobar. Men o'zim shu sohada chiqqanim uchun bu ishning naqadar qiyin va murakkab ekanini yaxshi bilaman. Shuning uchun ham oila tashvishlari va farzand tarbiyasini ilmiy-tadqiqot bilan birga olib borayotgan, bu borada amaliy yutuq va natijalarga erishayotgan olim ayollarni shaxsan men chinakam matonat va jasorat sohibalari, deb bilaman va yuksak qadrlayman”***, deya ta'kidlagan edilar. Bu bilan Prezidentimiz xotin-qizlarga zo'r ma'naviy dalda va ishonch berdi.

Kelinglar, hozir mamlakatimizda ayollarga yaratilayotgan sharoitlar haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Ayollari qadrlangan yurt

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/431

O‘qituvchi: Qani, ushbu videoni ko‘rgach xayolingizda qanday fikrlar paydo bo‘ldi? Balki ikkilanishlaringiz tarqagandir, ishonchingiz ortgandir? Qani, kim gapiradi?

O‘quvchilar fikr bildiradilar.

O‘qituvchi: Ayollarning ta‘lim olishi va ijtimoiy hayotdagi faolligi nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta‘limga kirish imkoniyatlari kengaygani sayin ayollar nafaqat an‘anaviy oilaviy rollarda, balki ilm-fan, iqtisodiyot, siyosat va boshqa muhim sohalarda ham faol ishtirok etmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ilmiy ayollar bolalarining intellektual rivojlanishida, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda va oilaviy farovonlikni oshirishda katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, ayollarning iqtisodiy faolligi jamiyatning barqaror rivojlanishiga, kambag‘allikning qisqarishiga va gender tengligining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda yetakchi davlatlarning taraqqiyotiga nazar tashlasak, ularning ko‘pchiligida ayollarning ta‘lim darajasi va jamiyatdagi faolligi yuqori ekani kuzatiladi. Bunday jamiyatlarda ayollar nafaqat ishchi kuchining muhim qismi, balki innovatsion g‘oyalar generatori sifatida ham e‘tirof etiladi.


Lekin ayollarning rivojlanishi yo‘lida ayrim stereotiplar to‘siq bo‘lishi mumkin. Hozir sizlarga paralimpiada chempioni Asila Mirzayorova shu stereotiplar va ularni qanday yengish haqida gapirib beradi. Monitorga qaraymiz.

Vizual kontent

“Xotin-qizlar bilan bog‘liq stereotiplarga qarshiman!” – Asila Mirzayorova

<https://youtu.be/HinzMN3P688>

O‘qituvchi: Keling, endi men sizlarga topshiriq beraman. Bu topshiriq “Tafakkur chorrahasi”, deb nomlanadi. Bunda siz “Muqaddas ayol” tushunchasini ham adabiyotda, ham hayotda qanday ko‘rinishlarini solishtirishingiz kerak bo‘ladi.



Topshiriq sharti:

1-doira: Adabiy asarlardagi (masalan, “O‘tkan kunlar”dagi Kumush yoki shoirlar ta’riflagan) ayol fazilatlari.

2-doira: Bugungi kunda o‘zingiz ko‘rib turgan (onangiz, ustozingiz timsolidagi) zamonaviy ayol fazilatlari.

Markazda: Ikkala davr uchun ham umumiy bo‘lgan, o‘zgarmas “muqaddas” xislatlar (mehr, sabr, hayo).

O‘quvchilar topshiriqni bajaradilar

O‘qituvchi: Ko‘rib turganingizdek, zamonlar o‘zgarsa ham, texnika rivojlansa ham, ayolning qalbi, uning mehri o‘zgarmaydi. U hamon o‘sha-o‘sha: bizni kechiruvchi, bizga yo‘l ko‘rsatuvchi va bizni beg‘araz sevuvchi zot.

Hozir yana bir ajoyib ayol – metro mashinisti yo‘lboshchiligida biz Toshkent metropoliteniga ekskursiya qilamiz. Siz umringizda metro mashinisti o‘tiradigan kabinaga kirganmisiz? Men ham ko‘rmaganman. Shuning uchun menga ham qiziq. Qani ketdik!

Vizual kontent

Keyingi bekat: Toshkent metropoliteni

https://youtu.be/eFd_w9XEoPI

O‘qituvchi: Hurmatli o‘quvchilar! Siz bugun partada o‘tirgan o‘quvchisiz, ammo bir umr shunday bo‘lib qolmaysiz. Siz ertaga bir oilaning tayanchi bo‘ladigan mard yigitlar va jamiyatning ko‘rki bo‘ladigan oqila qizlarsiz. Shuni unutmangki,

ayolga bo'lgan munosabat – bu sizning madaniyatingiz darajasini ko'rsatuvchi eng oliy mezondir.

III. YAKUNIY QISM (5 daqiqa)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bugun biz juda muhim va juda nozik mavzu haqida suhbatlashdik. Biz ayol siymosi, ona mehri, ularning jamiyat va hayotimizdagi beqiyos o'rni haqida fikr almashdik.

Tarixga qarasak, buyuk ayollarni ko'ramiz. Bugungi hayotga qarasak, fidoyi, bilimli, jasur ayollarni ko'ramiz. Ammo ularni birlashtiradigan eng buyuk sifat nima? Bu – mehr, sabr, fidoyilik. Zamon o'zgaradi, kasblar o'zgaradi, lekin ayol qalbidagi shu hislar o'zgarmaydi.

Bugun siz partada o'tirgan oddiy o'quvchi bo'lishingiz mumkin. Ammo ertaga siz ham jamiyatning bir bo'lafi, bir oilaning tayanchi bo'lasiz.

Shuni unutmang: ayolga hurmat – bu tarbiya belgisi. Kim ayolni qadrlasa – u o'z kelajagini qadrlagan bo'ladi.

Har biringiz hayotingizdagi muqaddas ayolni asrang. Ularning ishonchi – eng katta kuch.

Bugungi darsdan keyin balki kimdir onasiga boshqacha mehr bilan qarar, kimdir buvisiga boshqacha hurmat bilan gapirar...

Mana shu – darsimizning eng katta natijasi bo'ladi.

Uyga vazifa (Ijodiy va tarbiyaviy)

O'qituvchi: “Agar men dunyo bo'yoqlari bilan onamning (yoki muqaddas ayolning) suratini chizganimda, qaysi rangdan ko'proq foydalanardim?” mavzusida kichik og'zaki hikoya tayyorlab keling.

Bugungi dars uchun rahmat, aziz o'quvchilar. Mehrli, odobli va qadriyatlarni qadrlaydigan yoshlar bo'lib ulg'aying.

Dars tugadi.